

**O‘ZBEK ADABIYOTIDA ALEKSANDR FAYNBERG IJODINING
O‘RNI**

O‘zbekiston davlat Jahon tillari universiteti,

Ingliz filologiyasi fakulteti

Norboyeva Zuhraxon Alijon qizi

alidjanovnaaa999@.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Aleksandr Faynbergning hayoti, ijodiy faoliyati hamda madaniy merosi haqida ma’lumot beriladi. Unda shoirning o‘zbek adabiyoti va madaniyatini rivojlantirishga qo‘shgan hissasi, xususan, she’riy to‘plamlari, tarjimonlik faoliyati va kino sohasidagi ishlari batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: adabiyot, rusiyzabon shoir, she’r, she’riy to‘plam, tarjimon, ssenarist, o‘zbek kinochiligi, madaniy aloqa, umumiy qadriyatlar, vatanparvarlik.

Adabiyot so‘z san’atidir. U inson qalbi va ruhidagi nozik tuyg‘ularni, ichki his-tuyg‘ularni idrok etib, ularni so‘z orqali tasvirlashga intiladi. Eng yuqori cho‘qqilarga erisha oladigan badiiy asarlar insoniyatni chuqur o‘yga toldiradigan, hayajonga soladigan fikrlar, hissiyotlar va orzularni aks ettiradi. Dunyoda har bir inson o‘ziga xos bo‘lganidek, ularning qalb kechinmalari ham takrorlanmasdir. O‘zbek adabiyoti tarixi inson ruhiyatini mohirona aks ettirgan nodir durdonalarga boydir. Bu asarlar bugungi avlodning qalbiga ta’sir qilib, ularni ma’naviy jihatdan boyitishda muhim rol o‘ynaydi. Eng asosiysi, ular nafaqat bilimimizni oshiradi, balki badiiy didimizni shakllantirib, dunyoqarashimizni kengaytirib ma’naviy o‘sib, kamol topishimizga xizmat qiladi. Adabiyot tarixida shunday buyuk ijodkorlar ham yashab o‘tgan-ki, ular boshqa millat vakillari bo‘lishiga qaramay, o‘z ijodi orqali o‘zbek xalqining dardu iztiroblarini, ruhiy olamini kuylashgan. Bunday ijodkorlar o‘zbek adabiyotini dunyoga tanitishda va uni targ‘ib qilishda mislsiz fidoyilik ko‘rsatganlar. Ana shunday ijodkorlardan biri adabiyot osmonida eng yorqin yulduzlardan biri bo‘lgan, rusiyzabon ammo qalbi o‘zbek Aleksandr Faynbergdir. Aleksandr



Arkadyevich 1939-yil 2-noyabr kuni Toshkent shahrida tavallud topgan. Ota-onasi tugʻilishidan ikki yil avval Novosibirskdan koʻchib kelgan. Uning bolaligi Ikkinchi Jahon urushining ogʻir yillarida oʻtgan. Faynberg yetti yillik maktabni tugatib, Toshkent topografiya texnikumiga oʻqishga kirgan. Ushbu texnikumni tamomlagach, Tojikistonga harbiy xizmatni oʻtash uchun yoʻl oladi. Shuningdek, Faynberg 1965-yil Toshkent universiteti filologiya fakultetining jurnalistika fakultetining sirtqi boʻlimida tahsil olgan va talabalar gazetasida ishlagan. Arkadyevich Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi eng faol aʼzolaridan biri boʻlgan va ushbu uyushmada maslahatchi boʻlib ham bir necha yil ishlagan. Shoir Toshkentda Oʻzbekiston yosh yozuvchilari seminariga ham rahbarlik qilgan. U oʻzbek sheʼriyatiga oʻtgan asrning ikkinchi yarmida kirib, oʻzining sheʼrlari va toʻplamlari bilan keng tanildi. Uning asarlari tezda mashhur boʻlib, qoʻlma-qoʻl oʻqilib, matnlari asosida qoʻshiqlar yaratilgan, shuningdek, asarlari oʻzbek tiliga tarjima qilingan. Faynberg oʻn beshta sheʼriy toʻplamlar muallifi hisoblanadi. “Etyud”, “Sheʼrlar”, “Olis koʻpriklar”, “Qisqa toʻlqin”, “Soniya”, “Ijobat” va boshqa sheʼriy toʻplamlar shular jumlasidandir. Uning betakror asarlari bir vaqtning oʻzida oʻzbek “Sharq yulduzi”, “Yangi dunyo”, “Yoshlik” kabi jurnallarda hamda Kanada, AQSh va Izroil kabi xorijiy mamlakatlar matbuotlarida ham chop etilib kitobxonlar tomonidan katta qiziqish bilan mutolaa qilingan.

Hayotimni bunchalar shoshirma ey, yoʻl!

Hali toʻyganim yoʻq maysa boliga.

Quyoshli kunlarga, togʻlar qoriga,

Tashnaman, yashagim kelyapti ey, yoʻl.

Yana bir oʻtinchim sendan iltimos –

Yillarimni choʻzib yuborma haddan.

Sarhisob paytida qolmayin gangib,

Darveshday yashamay yana boshqattan.

Quvonch-u qaygʻumdan ayro qilmagin,



Bo'sag'ada qoldirma tilanchi yanglig'.

Titragan qo'llar-la qadahlar tutgan,

Chol kabi qaddi dol yillar beshamlig'

Hech kimga kerakmas, also kerakmas,

O'z umrim mano'li yashab o'tsam bas!

Aleksandr Faynberg tarjima sohasida ham katta yutuqlarga erishib, ko'plab o'zbek shoirlarining asarlarini rus kitobxonlariga tarjima qilib bergan. O'zbek she'riyatini mukammal o'rganib olganidan so'ng shoir Navoiy g'azallari, Abdulla Oripov she'rlari, Erkin Vohidov va Omon Matjon kabi boshqa o'zbek shoirlarining asarlarini rus tiliga tarjima qilib o'zbek adabiyotini dunyo miqyosida tanitishga ulkan hissa qo'shgan. Toshkentda chop etilgan "Oqqushlar galasi" nomli o'zbek shoirlari ijodidan qilingan tarjimalar jamlanmasi, Moskvada nashr qilingan Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" poemasi shoirning milliy tarjimonlik yo'nalishida faoliyatining eng yuksak cho'qqisi hisoblanadi. Faynbergning badiiy merosining katta qismini esa Rustam Musurmon rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Aleksandr Faynberg o'zbek kinochiligi rivojiga ham muhim hissa qo'shgan va o'zbek xalqining madaniy merosini boyitishda alohida o'ringa ega bo'lgan shaxsdir. U nafaqat adabiyotda, tarjimada balki kino sohasida ham o'z ijodini namoyon etgan. Faynbergning ssenariysi asosida "O'zbekfilm" kinostudiyasida "Mening akam", "Jazirama oftob tagida", "Qandahorda toblanganlar" kabi filmlar suratga olingan. Shuningdek, "Tojikfilm" kinostudiyasida "Jinoyatchi va oqllovchilar" filmi ham uning ssenariysi asosida yaratilgan. Shu bilan birga, uning ssenariysi asosida yigirmaga yaqin multfilmlar va to'rtta to'liq metrajli badiiy film ham yaratilgan. Barchamizga tarixdan ma'lumki, 1979-yilda o'zbek futboli iftixori sanalgan "Paxtakor" jamoasi a'zolari samoda halokatga uchrashadi va 170 dan ziyod futbolchi, murabbiy va sportchilar halok bo'lishadi. Ushbu qora kunda osmonga sochilgan yulduzlar xotirasining yigirma yilligi munosabati bilan 1999-yilda shoirning ssenariysi bo'yicha "Osmondagi stadion" nomli film suratga olingan va "Paxtakor" jamoasiga atab yozgan qo'shig'i yangragan. Afsuski, 2009-yilning oltin kuzida shoir bu dunyoni tark etadi. Faynberg rus va o'zbek adabiyoti hamda madaniy aloqalarni



rivojlantirishdagi tahsinga sazovor, ezgu ishlari va samarali mehnati uchun o'limidan bir yil oldin 2008-yilda "Pushkin" medali bilan taqdirlangan. O'zbek xalq shoirining o'zi tuzgan ikki jildlik asari ham vafotidan so'ng nashr etilgan. Bundan tashqari shoirning vafotidan so'ng ijodini o'rganish hamda faoliyatini yanada yoritish maqsadida G. Malixiana "A. A. Faynberg lirikasidagi badiiy obrazlar va tematik dominantlar tuzilishi" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasini Faynberg ijodini o'rganishga bag'ishlagan. O'zbekistonda shoirning xotirasini adabiy lashtirish va ijodini kengroq targ'ib qilib o'rganish, ilmiy izlanishlar olib boorish maqsadida adiblar xiyoboniga Faynbergning haykali o'rnatildi hamda O'zbekiston Davlat jahon tillari universitetida Faynberg nomidagi stipendiya ta'sis etildi. Aleksandr Faynberg o'z asarlari bilan nafaqat milliy adabiyotning rivojiga hissa qo'shdi, balki butun dunyoda o'zbek madaniyatini tanitishga xizmat qilgan buyuk shoir sifatida qalbimizdan o'chmas iz qoldirdi. Uning ijodi yuksak badiiy did, insoniyatning umumiy qadriyatlarini, mehr-muhabbatni, vatanparvarlikni va adolatni aks ettirgan. Uning rango-rang asarlari hamisha yillar davomida barhayotdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Feruza, R. (2024). "Russian" Инновационные подходы в современной науке". Aleksandr Faynberg hayoti, ijodining bugungi kundagi ahamiyati, 1-2.
2. Abbosbek, O. (2023) "Central Asian Journal of education and Innovation". O'zbek adabiyotida Aleksandr Faynberg ijodining o'rganilishi, 120. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8010343>
3. O'ralov, U. (2022). "Pedagog respublika ilmiy jurnali". O'zbek xalqining chin do'sti, tarjimon, shoir- Aleksandr Faynberg, 4, 745-746.
4. Avazxon, X. Begoyim, X. (2021). "Ijod Nashr". Ishq degani bir qarashda tuyular oson, 27.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg